



ZOYIR MIRZAYEVNING
300 million 2 milliardga aylandi va ...



YETTI MING YILLIK
tarix vayron bo'lishi mumkin




CHET ELGA
ISHGA

bormoqchi bo'lganlar o'qisin!

№ 16 (1248) 2024-yil
1-may, chorshanba

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



ISSN 2010-7714



milliy tiklanish

Adodi - 5 263 1995-yil 10-iyundan chiqqan bo'lgan
www.mtgazeta.uz | www.mt.uz | milliytiklanish2022@gmail.uz

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish | milliytiklanish_gazetasi

GERMANIYA - O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI CHUQURLASHTIRILADI



O'zbekistonning Germaniya bilan munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Bu fikr O'zbekiston Senati Raisi Tanzila Norboyevaning Germaniya Bundeštadidagi "Germaniya - Markaziy Osiyo" parlament guruhi raisining o'rinbosari Manfred Grund boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvida qayd etildi.

Muloqot chog'ida Germaniya Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, tez rivojlanib borayotgan O'zbekiston bilan ko'p qirrali munosabatlarni yanada chuqurlashtirishdan manfaatdor ekani alohida ta'kidlandi.

Birinchi navbatda, barqaror o'sib borayotgan iqtisodiy yo'nalishda tovar ayirboshlash hajmini kengaytirish, yangi investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish bo'yicha qiziqish bildirildi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda parlamentlararo muloqotning muhimligidan kelib chiqib, bu borada qator rejalarga to'xtalib o'tildi. Xususan, ikki tomonlama aloqalarni huquqiy jihatdan ta'minlash, parlament qo'mitalari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalarni o'rnatish va uni yanada rivojlantirish muhimligi qayd etildi. Elektron parlamentni joriy etish bo'yicha tajriba almashishga kelishib olindi. Delegatsiya a'zolari

O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga ham yuqori baho berdilar. Mazkur jarayonda Germaniya faol ishtirok etishga tayyorligi bildirildi. Mehnat munosabatlari, gender tenglikni ta'minlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy-gumanitar sohalarda ham hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari bo'yicha fikr almashildi. Uchrashuv yakunida O'zbekiston va Germaniya parlamentlari munosabatlaringini yangi yo'nalishlarini belgilab olish maqsadida hamkorlikka oid tegishli hujjatlarni ishlab chiqishga kelishib olindi.

N.ABDURAIMOVA, O'ZA

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan xorijiy tillar va kasb-hunar o'rgatish uchun

32

ta monomarkaz, 53 ta kasb-hunar o'qitish va 13 ta qurilish sohasining malakali mutaxassislarini tayyorlash markazi, 10 ta xorijiy tashkilotlar bilan 48 ta kurslar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

3-sahifa

ISHONCHIM KOMILKI, SIZLAR

BU YUTUQDAN YANADA
RUHLANIB, FINAL BELLASHUVIDA

«OSIYO CHEMPIONI»

DEGAN SHARAFLI
NOM UCHUN MUNOSIB
KURASH OLIB BORASIZ

Millat yetakchisining ishonchi millionlar ishonchining ifodasi bo'ldi. 116 daqiqa davomida og'riqli tarixning dog'lari ko'z oldimizdan o'taverdi. Kutdik, ishonдик, boshimizni changalab, yuragimizga og'riq bergan lahzalar ham bo'ldi. Bu onlarni hech bir ikkilanishlarsiz o'zlikka qaytish onlari deb atagimiz keldi...

◆ Faxr

Qatarda futbol bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tayotgan Osiyo kubogida O'zbekiston terma jamoasi tarixiy g'alabaga erishib, biron-bir final hamda shu yilning yozida Parijda o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlari yo'llanmalarini qo'lga kiritdi.

Ushbu g'alaba, shubhasiz, yurtimizning million-million futbol muxlislarini behad quvontirdi, har birimizga quvonch va g'urur bag'ishladi. Zero, bu uzoq yillik armonimiz edi.

Alohida ta'kidlash lozim: bu g'alaba Yangi O'zbekiston tarixidagi eng yuksak voqealardan biri bo'ldi. Uning tarixiyligi shundaki, mamlakatimiz bayrog'i endi Parij futbol musobaqalarida ham ko'tariladigan bo'ldi.

G'alaba soatlaridan ko'p o'tmay O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev terma jamoamizga tabrik yo'llab, bu orzuni amalga oshirish aynan Yangi O'zbekistonning navqiron farzandlariga nasib etgani bilan har qancha faxrlansak arzishini, erishilgan tarixiy g'alaba zamirida keyingi yillarda mamlakatimizda sportni, jumladan, futbolni rivojlantirishga qaratilayotgan ulkan e'tibor va amalga oshirilayotgan keng ko'lami amaliy ishlar mujassamligini ta'kidladi.

Haqiqatan ham, so'nggi yillarda sportda keng ko'lami o'zgarishlar amalga oshirildi. Hatto eng chekka hududlardagi iqtidorli, azmu shijoatli, kelajagi porloq, vatanparvar yoshlarga

So'nggi yillarda sportda keng ko'lami o'zgarishlar amalga oshirildi. Hatto eng chekka hududlardagi iqtidorli, azmu shijoatli, kelajagi porloq, vatanparvar yoshlarga ham katta e'tibor qaratildi.

ham katta e'tibor qaratildi. Sohaga tajribali murabbiy va mutaxassislar jalb qilindi. Buning mevasini esa nihoyat ko'rib turibmiz.

Bunday sharafli g'alaba nafaqat sportchilarimizga, balki boshqa yo'nalishlarda ta'lim olayotgan, kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'laman deb tinim bilmayotgan yoshlar uchun ham rag'bat bo'ldi.

Endi "Osiyo chempioni" degan sharafli nomni qo'lga kiritishimiz uchun Yaponiya futbolchilari to'sig'idan o'tishimiz lozim. Kunchiqar mamlakat jamoasining Olimpiada va jahon chempionatlariga Osiyoning faqat va faqat birinchi raqamli jamoasi sifatida borishga o'rgangani va doimo shunga intilganini e'tiborga olsak, yoshlarimizga oson bo'lmaydi.

Ammo terma jamoamiz o'tkazilgan 5 ta o'yinda darvozamiz daxlsizligini saqlagan holda raqiblar darvozasiga 14 ta javobsiz to'p kiritgani, eng asosiysi, yoshlarimizning g'alabaga bo'lgan ishonchi final o'yiniga ham asos bo'ladi, albatta. Demak, navbat "Osiyo chempioni" degan sharafli nomni egallashga.

O'z muxbirimiz

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

ENERGETIKA TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR TO'G'RI TALQIN QILINISHI KERAK

24 - 27-aprel kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyamiz a'zolari hududlarda bo'lib, ijtimoiy muassasalar, mahalla va ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati bilan tanishdilar. Uchrashuvlarda bozor mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlar xususida ham keng ma'lumotlar berildi.

3



ZOYIR MIRZAYEVNING 300 MILLIONI

MILLIARDGA AYLANDI VA ...



Ta'lim Yangi O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ana shu jarayonda hududlar rahbarlari millat yetakchisining bu boradagi g'oya va tashabbuslarini joylarga yetkazuvchi mustahkam ko'prikk aylanayotgani quvonarli hol, albatta.

Angren shahridagi 17-maktabda o'tgan «O'talar uchrashuvi»da ilgari surilgan taklif va tashabbuslarni, fikr va mulohazalarni eshita turib, Toshkent viloyatida bu masalaga anchayin ijodiy va real yondashilayotganiga guvoh bo'ldim. Keksa pedagoglar, ushbu maktabda uzoq yillar rahbarlik qilgan ustozlardan tortib, mahalla oqsoqollari ham Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshayotgan ta'limdagi o'zgarishlarni baralla e'tirof etdilar.

Toshkent viloyati hokimi, Oliy Majlis Senati a'zosi Zoyir Mirzayev ishtirokidagi tadbir uch soatdan ko'proq davom etdi. Ochiq muloqotda biron-bir masala chetda qolmadi: ota-onalardan tortib, bog'cha tarbiyachisigacha, maktab

o'quvchisiyu, ustoz muallimlar zimmasidagi mas'uliyatgacha muhokama qilindi.

Viloyat hokimi so'zga chiqqanlarni erinmay eshitdi, gaplarini bo'lmadi. Jiddiy mavzular bilan birga qiziq hazillargacha yangragan tadbirda Milliy gvardiya zimmasiga yuklatilgan yangi vazifalar bejiz emasligi ham, kitob o'qimaslik qorong'ulikka, mavhumlikka eltishi, o'quvchilar qo'lidagi telefonning o'nlab bo'lmas zararigacha qayta-qayta tilga olindi.

Zoyir Mirzayev bola tarbiyasida onalardan ko'ra, otaning o'rni muhim ekanini bir necha bor ta'kidlab, hatto o'z yoshligi o'tgan hududda mahalla oqsoqlarining bolalarga ko'rsatgan ijobiy

ta'sirigacha eshladi, eslash asnosida kecha va bugungi maktabga, ta'limga, eng asosiysi ustozlarga bo'lgan munosabatlarni qiyosladi, «bir bolaga yetti mahalla ota-onas» bo'lgan davrlardagi munosabatlar yoshlarni to'g'ri yo'l tanlashga xizmat qilganini misollar bilan tahlil qildi. Uchrashuvda hatto uyda, bog'cha va maktabda yo'l qo'yilgan xatolar tufayli Suriyaga borib qolgan ayrim yoshlar va ularning achchiq qismatigacha esga olindi.

Ha, chindan ham Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayevning «Telefonsiz maktab» tashabbusi kutilganidan ko'ra kengroq qamrov kasb etdi.

Shu o'rinda ushbu tashabbusning mavsumiy emasligi, uning aniq bir muammo yechimiga qaratilgani, eng muhimi viloyat ahli, ayniqsa, pedagoglar qatlami tomonidan to'la qo'llab-quvvatlangani real natijaga asos bo'lganini ta'kidlash joiz.

Maktab va maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'i Elyor Akbarovning qayd etishicha, tashabbus e'lon qilingan kundand boshlab 106 ta maktab jamoasi «telefonsiz faoliyat»ga o'tishga ulgurgan.

Eng qizig'i, ushbu tashabbus 37 ming ustoz-muallimlari bo'lgan viloyatda biron-bir maktab jamoasini e'tiborsiz qoldirmagan. 888 ta maktab, hatto 573 ta bog'cha faoliyatiga ham tashabbus ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Yig'ilish viloyat hokimi tashabbusning real natijalarini muhokama qilish bilan yakunlansa kerak deb o'ylagandim.

Ammo...

Ammo hokim yangi tashabbusni

ilgari surib, bu avvalgi tashabbusning mantiqiy davomi ekanini ta'kidladi.

–Kitob o'qimagan, bilimsiz bolaning kelajagiga ishonch yo'q, – dedi Zoyir Mirzayev. – Shundan kelib chiqib, endi o'z farzandining bilimli bo'lishidan manfaatdor bo'lgan ota-onalarning maktab kutubxonalariga kitob sovg'a qilishlarini rag'batlantirmoqchimiz. Ya'ni, o'z farzandi yo nabirasi uchun eng ko'p kitob hadya qilingan 10 ta maktabga 200 million so'mdan moddiy yordam ko'rsatamiz. Bu mablag'ni maktab ma'muriyati o'z xohishiga ko'ra ishlatsin: zamonaviy kompyuterlar, turli darsliklar xarid qilsin, ustozlarni moddiy rag'batlantirsin.

Bir so'z bilan aytganda, 300 million bilan boshlangan «Telefonsiz maktab» tashabbusi 2 milliardli yangi tashabbus bilan butunlay yangi bosqichga ko'tarildi.

– Bugungi majlisga onalarni emas, otalarni taklif etganimiz bejiz emas, – dedi hokim. – Chunki bolalarimiz taqdiriga eng avvalo biz otalar javobgarmiz. Kitoblar bilan bog'liq tadbir ham sizlarning nazoratingizda bo'lishini istar edim...

Zaldagilar qarsaklar bilan navbatdagi tashabbusni ham qo'llab-quvvatlashdi.

Uchrashuv yakunida Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev «Telefonsiz maktab» loyihasi g'olibi – 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori Zebo Mahkamovga 300 million so'm pul mukofotini topshirdi.

Umud ARSLONBEKOV

Parlamentda

BANDLIK - byurokratik to'siqlar bartaraf etilmoqda

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi “Fitosanitariya talablari yengillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining “O'simliklar karantini to'g'risida”gi Qonunining 29-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokamasi bilan boshlandi. Garchi keyingi yillarda aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash, narx-navo barqarorligini saqlash hamda ijtimoiy ahamiyatga molik mahsulotlarni chetdan olib kirish uchun tadbirkorlarga qator yengilliklar yaratilayotgan bo'lsa-da, sohada tashqi savdo talablariga muvofiq bo'lmagan byurokratik to'siqlar saqlanib qolyapti.



Ushbu qonun loyihasi ana shunday to'siqlardan birini olib tashlashga qaratilgan bo'lib, unda xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, xorijdan keltirilayotgan fitosanitar xavfi past bo'lgan mahsulotlarga eksport qiluvchi davlatning sertifikatini talab etish amaliyotini bekor qilish nazarda tutilgan. Bunda karantin ostidagi xavfi past bo'lgan 230 ta mahsulot nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizdan olib chiqilayotgan mahsulotlarga ham shunday talabni bekor qilish taklif etilyapti.

Amaldagi tartibga ko'ra, O'zbekistonga karantin ostidagi mahsulotni olib kirish uchun karantin ruxsatnomasi, eksport qiluvchi davlatning fitosanitariya sertifikati yoki guvohnomasi talab etiladi.

Fraksiya a'zosi Bekmirza Eshmurzayev qonun loyihasiga munosabat bildirarkan, bunday o'zgarish boshqa xavflarni yuzaga keltirishi mumkinligini ta'kidladi. Masalan, chetdan kirib kelgan bargxo'r kolorado qo'ng'izi bugun nafaqat kartoshkaga, boshqa mahsulotlarga ham jiddiy zarar yetkazmoqda.

– Import mahsulotlariga berilayotgan bunday yengillik boshqa turdagi zararkunandalarning ko'payishiga ham sabab bo'lmaydimi? – dedi deputat.

Qonun tashabbuskorlari bu savolga javob qaytarar ekan, xavotirga o'rin yo'qligini, yengillik faqat fitosanitar xavfi past bo'lgan mahsulotlarga berilayotganini bildirishdi. Bular asosan qayta ishlangan tayyor mahsulotlar bo'lib, ular jumlasiga quritilgan mevasabzavotlar, qoplangan choylar kiradi.

Ma'lumki, kolorado qo'ng'izi 1859-yilda AQSHning Kolorado shtatida aniqlangan bo'lib, keyinchalik

Yevropa va Osiyo davlatlarida keng tarqaldi. O'zbekistonga esa bu zararkunanda Belorusdan keltirilgan kartoshka urug'i orqali kirib kelgani aytiladi. Har tup kartoshka o'simligidagi 20-40 dona kolorado lichinkasi va qo'ng'iz barglarning 50-100 foizini nobud qiladi hamda hosildorlikni o'n baravargacha kamayishiga sabab bo'ladi.

Kolorado qo'ng'izi uch yilcha hech narsa yemadan yashashi mumkin va bu borada u yer yuzidagi yagona jonot hisoblanadi. Jonivor juda ayyor bo'lib, xavf sezganda o'zini «o'likka» solib olishdek «yuksak fazilatga» ega. Shuningdek, uning organizmi har qanday zaharga moslashuvchan, ya'ni tezda unga qarshi immunitet hosil qila oladi.

Deputatlar loyihada ko'plab kamchiliklar borligini, ikkinchi o'qishda albatta, ular ustida jiddiy ishlashini ta'kidlab, qonun loyihasini birinchi o'qishda konseptual ma'qulladilar.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasida bandlik xizmatlari takomillashtirilishi munosabati bilan «Aholi bandligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi

ham birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda davlat xizmatlarini ko'rsatishni raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, ulardan foydalanishdagi to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun qulay sharoitlar yaratish, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish va aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan qator islohotlar amalga

byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda aholining davlat organlariga bo'lgan nisbatan ishonchini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan. Jumladan, loyiha bilan amaldagi qonunchilikka ish beruvchilarga mahalliy mehnat organlariga bo'sh ish o'rinlarini taqdim etish jarayonini soddalashtirish, ommaviy ishdan bo'shatilganda ishchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, mahalliy bandlik organiga murojaat qilgan

Ushbu loyiha intellektual mulk sohasidagi navbatdagi xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, O'zbekistonda bu shartnoma 1998-yilda kuchga kirgan. Uning o'ziga xos afzalliklari shundaki, davlatlarning milliy qonunchiligida tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida nazarda tutilgan talablarni belgilab beradi. Bu tadbirkorlik subyektlari uchun qulay bo'lib, Singapur shartnomasi Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo davlatlarning milliy qonunchiligida aynan tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonidagi talablarni muvofiqlashtirishni maqsad qilgan. Uning yana bir muhim jihati, barcha talabalar elektron tarzda topshiriladi va bu vaqtni ham, mablag'ni ham tejaydi. Hozircha 54 ta davlat ushbu shartnomaga a'zo bo'lgan.

Yana bir muhim fakt: ushbu xalqaro shartnomaga qo'shilish O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mamlakatimizning dunyodagi imji hamda investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

AMALDAGI TARTIBGA KO'RA, O'ZBEKISTONGA KARANTIN OSTIDAGI MAHSULOTNI OLIB KIRISH UCHUN KARANTIN RUXSATNOMASI, EKSPORT QILUVCHI DAVLATNING FITOSANITARIYA SERTIFIKATI YOKI GUVOHNOMASI TALAB ETILADI.

oshirilmoqda. Shu bilan birga, o'zgarishlar samaradorligini oshirish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni yanada faollashtirish maqsadida yangi normalarni qonunchilikka aks ettirish talab etilmogda.

Ushbu qonun bandlik xizmatlarini ko'rsatishdagi kamchiliklar, ortiqcha

fuqarolardan keraksiz hujjatlarni talab qilishni to'xtatish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Yig'ilishda «Tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini soddalashtirish, ommaviy ishdan bo'shatilganda ishchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, mahalliy bandlik organiga murojaat qilgan



ENERGETIKA TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR TO'G'RI TALQIN QILINISHI KERAK

24 - 27-aprel kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyamiz a'zolari hududlarda bo'lib, ijtimoiy muassasalar, mahalla va ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati bilan tanishdilar. Uchrashuvlarda bozor mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlar xususida ham keng ma'lumotlar berildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari, partiya yetakchisi Alisher Qodirov boshchiligidagi deputatlar Chilonzor tumanidagi Beshqo'rg'on mahallasida bo'lib, aholi uchun elektr energiyasi va tabiiy gazning bir oylik iste'moli belgilangan yangi «bazaviy me'yorlar» kuchga kirayotgani sabablari haqida tushunchalar berdilar.

Ma'lumki, ayrim hollarda ushbu o'zgarishlar ijtimoiy tarmoqlarda turlicha talqin qilinmoqda.

Alisher Qodirov amaldagi tariflar haqiy tanaxrni qoplamayotgani, soha subsidiyalari hisobidan faoliyat yuritayotganini ta'kidlab, shu kungacha iste'molchiga yetkazib berilyotgan elektr energiyasi narxi 295 so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, aslida davlatga 900-1000 so'mga tushayotganini misollar bilan izohladi. Oqibatda yuzaga kelayotgan zarar 14 trln. so'mdan ortiq mablag'ni subsidiyaga yo'naltirish orqali qoplayapti. Bu esa tizimda modernizatsiya ishlarini ko'ngildagidek amalga oshirish imkonini bermayapti. Ya'ni, bu nafaqat aholini energiya bilan to'laonli ta'minlashga, balki sohadagi beqarorlikka, pirovardida esa mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tejalgan subsidiya eskitib bo'lgan infratuzilmani yangilashga sarflanadi, xolos. Chunki bugun 125 ming kilometr uzunlikdagi elektr uzatish tarmog'ini, 912 ta podstantsiya va 33 mingdan ortiq transformatorlar 40 yildan beri ishlatilyapti. Natijada ishlab chiqarilgan elektr energiyasi isrofi ortib, 15-20 foizi iste'molchilarga yetib bormayapti.

Shu bois, «ko'p ishlatgan ko'p, kam ishlatgan kam to'lash» yo'lga o'tilmoqda. Bu ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan eng yaxshi yechim bo'lgani uchun aksariyat davlatlar, hatto qo'shnilarimiz ham allaqachon shu yo'lga o'tishgan, -

dedi Alisher Qodirov. Deputatlar oilaviy tadbirkor Akmal Ergashev xonadonida bo'lib, mebel va tikuvchilik korxonasi faoliyati bilan ham tanishdilar. Keyin deputatlar funksional oziq-ovqatlar kombinatida bo'lib, 70 nafar fuqaroni ish bilan ta'minlagan korxonada ishchilariga energetika tizimidagi so'nggi o'zgarishlar haqida batafsil ma'lumot berdilar.

Andijon viloyati, Xonobod shahridagi mineral suv ishlab chiqaruvchi «E'vita» xususiy korxonasida bo'lgan deputat Tursunoy Muratova ham ishchilarni qonunchilikdagi so'nggi yangiliklar, jumladan, energetika bo'yicha qonunchilikka kiritilayotgan o'zgarishlar bilan tanishtirdi. Hozirda mazkur korxonada 300 nafardan ortiq fuqaro ish bilan ta'minlangan, kelgusida yana 200 nafar ishsiz fuqaroning bandligini ta'minlash reja qilingan.

Yangi «bazaviy me'yorlar»ni amaliyotga tatbiq etishdan maqsad ijtimoiy adolatni qaror toptirish, - dedi deputat. - Ayni paytda mamlakatimizdagi jami xonadonlarning qariyb 85 foizi (6,4 mln.) elektr energiyani atigi 37 foizini, ya'ni oyiga o'rtacha 300 kVt.soatgachasini sarf qiladi. Qolgan 15 foiz (1,1 mln.) xonadon esa umumiy quvvatning 63 foizini iste'mol qiladi va ular o'rtacha oyiga 1000-5000 kVt.soat, hatto undan ko'proq elektr ishlatadi. Tabiiyki, bunday xonadonlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga kirmaydi va ularning subsidiyalangan tariflardan foydalanishi qay darajada to'g'ri?

Yana bir misol: oilada bitta o'rta klassdagi avtomobil bo'lsa va u kuniga 100 km yursa, benzinda 150 000 so'm, metan gazda 40 200 so'm sarflanadi. Elektromobil bo'lsa-chi? Tijorat quvvatlash stansiyalariga kirsam 37 500 so'm to'laydi, ammo uyd qavvatlansa-chi? 4 425 so'm! Agar uyda subsidiyalanmagan tariflarda quvvatlasa qancha to'lar edi? 15 000 so'm, ya'ni benzindan 10 barobar arzon! Nahotki, elektromobil egasi kuniga 11 000 so'm subsidiya olishga muhtoj?

Sodda qilib aytganda, bugun kam daromadga ega va kam elektr energiya ishlatadigan iste'molchi ham, daromadi yaxshi va oyiga ko'p elektr energiya ishlatadigan iste'molchi

ham bir xil narxda elektr energiya xarid qilmoqda. Davlat subsidiyasidan ham bir xil foydalanmoqda! Qani bu yerda ijtimoiy adolat?

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida, masalan, energoresurslarga boy bo'lgan Saudiya Arabistonida ham elektr energiya tarifi iste'mol darajasiga qarab o'zgaradi. Turkiyada ham shunday: 2023-yilda turk xonadonlari oyiga 240 kVt.soatgacha iste'mol qilgani holda har bir kVt.soatga 686 so'mdan, undan ortig'iga esa 1031 so'mdan haq to'laganlar.

Dehqonobodlik saylovchilar bilan uchrashgan deputat Jamshid Qosimov «Bozortepa», «Obod» hamda «Kaltaminor» mahallalari aholisini «O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida»gi qonun loiyahisi bilan tanishtirdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, bugun 4 millionga yaqin uy-joyning kadastr hujjati yo'q. Amaldagi qonunchilikda esa yerga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish uchun huquqiy asos ham, vakolati organ ham belgilanmagan. Hozirgacha bunday huquqlarni e'tirof etish bo'yicha 5 marta aksiyat e'tirof qilingan bo'lsa-da, aksariyat yurtidoshlarimiz turli sabablarga ko'ra ularda ishtirok etolmagan. Natijada ko'pchilik o'zi yashab turgan uy-joyiga egalik huquqini ololmay sarson bo'lmoqda.

Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun loiyahisi aynan ushbu masalalarga huquqiy yechim ko'rib xizmat qiladi. Unga ko'ra, 2028-yilning 1-mayiga qadar fuqarolarning yakka tartibda, uy-joy qurgan holda o'zboshimchalik bilan egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga nisbatan mulk huquqi e'tirof etiladi.

Qorako'l tumanidagi «Xidreyli» mahallasi aholisi bilan ochiq muloqot o'tkazgan deputatimiz Nazir Sobirov esa hokim yordamchilarining faoliyati hamda 2024-yildagi rejalari bilan tanishdi. Ma'lum qilinishicha, mahallada joriy yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 45 nafar ishsiz bo'lgan. Shu kungacha ularning 28 nafari ish bilan ta'minlandi. O'z-o'zini band qilish orqali esa 8 nafar fuqaroga imtiyozli kredit asosida chorva mollari olib berildi.

Buloqboshi tumani hokimligida to'rtta sektor vakillari, mahalla raislari va hokim yordamchilari bilan uchrashgan Baxtiyor Maniyazov esa «Yashil makon» loiyahisi doirasida amalga oshirilgan ishlar, tomorqadan samarali foydalanish bo'yicha Sayxunobod tajribasini ommalashtirish



«Ijtimoiy himoya yagona reyestri»ga kiritilgan bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlangan oilalarga 270 ming so'mdan bir martalik kompensatsiya ajratilishi, bu bilan qariyb 1,5 mln. kam ta'minlangan oila ijtimoiy himoya qilinishi ta'kidlandi.

Aholi uchun elektr energiya bo'yicha belgilangan 295 so'mlik tarif boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirish darajasida ham emas. O'zbekiston bu borada 230 ta davlat ichida eng past tarifi 15 ta davlat qatoriga kiradi, - dedi Umida Rahmonova. Misol uchun qo'shni Qozog'istonda oyiga o'rtacha 300 kVt.soat elektr energiyasini ishlatuvchi xonadon har bir kVt.soat uchun o'rtacha 790 so'm to'laydi va bu O'zbekistondagidan 2,6 barobarga qimmat. Boshqa rivojlangan davlatlarda, misol uchun Yaponiyada bu ko'rsatkich 2 791 so'mga teng. Yevropa davlatlarini gapirmasa ham bo'ladi. Ispaniyada 4695 so'm bo'lib, mamlakatimizdagidan qariyb 16 barobar qimmat.

Uchrashuvlarda fuqarolar va «yettalik» vakillari tomonidan ko'plab taklif va tashabbuslar bilan birga e'tirozlar ham o'rtaga tashlandi. Jumladan, elektr energiya bo'yicha belgilangan ta'riflar ko'p qavatli turar joylar uchun to'g'ri kelar, ammo hovlida yashayotgan fuqarolar uchun, ayniqsa, qish mavsumida juda kam. Bas, shunday ekan, bu me'yorlarni qayta ko'rib chiqish kerak qabilidagi takliflar ham bildirildi. «Mahalla yettiligini faoliyatga kirmaydigan ishlar jalb qilishni butunlay cheklash lozim. Xatlov ishlarida «yettalik» ham ishtirok etishi lozim va bu ko'plab muammolarni yechish imkonini beradi, kabi takliflar shular jumlasidandir.

Deputat Umida Rahmonovaning Qorovulbozor tumani hamda Kogon shahridagi «mahalla yettligi» hamda faollari bilan uchrashuvlari ham samarali o'tdi. Uchrashuvlarda energetika tizimidagi so'nggi yangiliklar, tariflar o'zgarishi munosabati bilan kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalarida ma'lumotlar berdi. Jumladan, isitish mavsumida

R.MAHMUDOV tayyorladi.



✓ Bugunning gapi

Chet elga ishga bormoqchi bo'lganlar o'qisin!

Bugungi globallashuv davri har birimizdan zamon bilan hamnafas bo'lish barobarida qadriyatlarimizni amalda qadrlashni qaysi sohada ishlaymiz, albatta, ona tilimiz bilan birga, bir nechta xorijiy tillarni bilishimizni taqozo etmoqda. Tan olaylik, til bilgan kishi dunyoni ko'proq, chuqurroq, bila boshlaydi, turli xalqlarning madaniyatidan, tarixidan xabardor bo'ladi. Shu bois ham yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya berish, yetuk mutaxassislarni tayyorlash va xorij tillarini o'rgatishga muhim vazifa sifatida qaralayotir.

Bunday siyosat zamidrida yurt kelajagi va ravnaqi uchun tom ma'noda kuyadigan, dunyo bozorida raqobatbardosh, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlash, o'g'il-qizlarning hayotda o'z o'rnini topishlari uchun munosib sharoit yaratish, ilmiy qilish, dunyodagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan avlodni voyaga yetkazish maqsadi mujassamdir.

Nelson Mandela o'z nutqlaridan birida, «Agar siz bir odam bilan u tushunadigan tilda gaplashsangiz, uning ongiga kirib borasiz. Agar siz u bilan uning ona tilida sozlashsangiz, uning yuragiga kirib borasiz» degan ekan. Shu sababli chet tilida ham ona tilidek chiroyli sozlash, xushmuomala bo'lish yoshlarga faqat va faqat yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda, internet saytlarida xorijda mehnat faoliyatini olib borayotgan yoshlarimizning til bilmasligi, qo'lida yaxshi hunari yo'qligi sababli turli qiyinchiliklarga, muammolarga duch kelayotgani haqida ko'p eshityapimiz. Bu har birimizni o'yantiradi, mushohadaga chorlaydi.

Bilamizki, bugun

mamlakatimizda xorijga ketayotgan yoshlarni kasb-hunar o'qitish, ular xavfsizligi va kafolatlangan ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yilgan. Ammo yaratib berilyotgan bunday imkoniyatlarga qaramay, yoshlarimiz chet tilini bilmasada, xorijga tavgakchilik asosida erkin chiqib ketyapti. Til bilmasligi bois, ish tanlash, muloqot qilish va boshqa huquqlarini bilmayapti.

Mazkur muammolarni hisobga olib, yurtimizda mehnat migratsiyasini, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini o'z ichiga oluvchi migratsiya siyosatini shakllantirish yo'lida izchil ishlar olib borilmoqda. Mehnat migratsiyasi masalalarini tartibga solish, mavjud muammolarni bartaraf etish, chet elga ketishdan oldin yurtidoshlarimizning kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatini yaratishga katta e'tibor qaratilyotir.

Masalan, ayni chog'ida 28 ta davlatning 300 ga yaqin ish beruvchi va rekrutning agentliklari bilan O'zbekistondan ishchi kuchini jalb etish bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolangan. Shuningdek, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi

tomonidan xorijiy tillar va kasb-hunar o'rgatish uchun 32 ta monomarkaz, 53 ta kasb-hunar o'qitish va 13 ta qurilish sohasining malakali mutaxassislarini tayyorlash markazi, 10 ta xorijiy tashkilotlar bilan 48 ta kurslar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Prezidentimiz raisligida shu yil 2-aprel kuni o'tkazilgan yig'ilishda ushbu yo'nalishdagi ishlarini tashkil etishda yangicha tizim yaratilishi bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Unga ko'ra, 27 ta professional ta'lim muassasasida yangi o'quv kurslari yo'lga qo'yiladi. Unda xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolar bir yilgacha muddatda to'lov-kontrakt asosida tayyorlanadi hamda ularni chet tiliga o'qitishda xususiy o'quv markazlari bilan hamkorlik qilinadi.

Kasbiy malakasi yo'q, tilni bilmaydigan fuqarolarini esa kasbga o'qitish va profita'lim muassasalarida maqsadli tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Buning uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi huzurida fuqarolarni xorijiy tillarga o'rgatish va ishlashga maqsadli tayyorlash markazi ochiladi.

Shu bilan birga, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha,

Vengriya, Yaponiyadagi elchixonalar va konsulliklarda mehnat migratsiyasi bo'yicha attashe, Saudiya Arabistonida esa agentlik vakili lavozimi joriy qilinadi. Xorijdagi fuqarolarimiz muammosini tezkorlik bilan hal qilish uchun elchixonalar va tegishli vazirliklarda 24 soat ishlaydigan «koll-markazlar» tashkil etiladi. Bu tizim orqali yurtidoshlarimiz o'zlarini o'yantirayotgan barcha masalalarga tez javob olish imkoniga ega bo'ladi.

Ayniqsa bu borada «xorijga ish - mahalladan» tamoyili yo'lga qo'yilayotgani e'tiborga molik. Unga ko'ra, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqaroni aniqlab, «Onlayn mahalla» platformasiga kiritadi. Nomzodlar xorijdagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb qilinadi. Kasbiy malakasi yo'q va tilni bilmaydigan fuqarolarni kasbga o'qitish va profita'lim muassasalarida maqsadli tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Ushbu sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad bitta: toki chet ellarda mehnat qilayotgan yoshlarimiz hech bir to'siq yoki muammoga duch kelmasin, vatqingiz, oilasi bag'riga sog'-omon qaytsin.



Sherzod QULMATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



Улар орасида сочини икки кокил қилиб ўрган, гўзал, ҳали 16-17 ёшга кириб улгурмаган ўзбек хизлари ҳам бор эди. Афсуски, орзу-умидлари бир олам бўлган ана шу ёшлар кун келиб уларни ўз ватанларида муқаррар ўлим қутаётганини билишмасди.

«...КЎРҚМА ҚОҚЛАРНИ»



«Алишер Саъдуллаевга раҳмат. Фожиямизга даво излашда тинмаяпти. Жавлон Жовлиевнинг «Кўрқма» асарини «Муталаа» лойиҳасида ўқимайдиган миллатга ўқитмоқчи бўлибди. Асар жиддий таҳлил, очиқ таҳис ва оғриқли эътирофлар билан уйғоқлар дардини орттиради. Мен шу лойиҳа асосида, ёшигидан эътирозим билан ватандошимиз Аъзам Хошимийнинг «Алвидо Ватан» асарини ҳам ўқиниш таклиф қиламан. У фожиямизни бошқачароқ талқин қилади. Жавлон Жовлиев жисмига аҳамияти ҳақида яхши ёзган: жисм ифлос қонни ўзига ютиб, тозасини танага ёйишига уруғ берилган, бу билан миллатимизнинг жисари хаста эканлигига жуда ҳам тўғри шараҳ қилинапти... Жисм инсоннинг тўғри яшаш учун зарурлиги ва бу унинг вазифаси эканлигини англаймиз, лекин у нима учун бу ишни қилишини, қоракнинг илк силкиниши каярдан пайдо бўлишини англаганимиз каби англамаймиз, англашни истамаймиз ва ҳатто англамоқчи бўлганларни ёлмон кўрамиз. Инсон ёки миллат кўриқлиши мумкин, ҳатто бу ҳаётини зарурат. Солженицин кўрққани учун юртини ташлаб кетди ва миллати «Гулагани берди, Қодирий, Ҳамза, Чўпонларимиз кўрқмасдан ўлимга тик қарадилар. Балки бироз кўрққанларида эди, миллатимиз бузун бунчалар абгор бўлмасмиди... Кўрққан эмас, ўзи ва ўзисини унутган инсон ёки миллат мавжудлигининг маъносини унутади ва асл фожия шу ердан бошланади... Фожиямизнинг асл сабаби кўрқмай қўйганимиз эмасмикан, деб ўйлаб қоламиз.»

Алишер КОДИРОВ, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Спикерининг ўринбосари, «Миллий тикланиш» демократик партияси Марказий кенгаши раиси

Германияга ўқишга бориб келгач, турли бўҳтонлару тўхматлар билан отиб ташланган талабалар қисматидан ҳикоя қилган «Кўрқма» романида қахрамон қиз номидан келтирилган даҳшатли ҳақиқатлар киши вужудига олов солади. 2021 йилнинг энг кўп ўқилган китоби «Йил бестселлери» деб топилган «Кўрқма» романи Афғонистоннинг халқаро «Олтин қалам» мукофотига лойиҳа деб топилган. Шу асар туфайли Жавлон Жовлиев «Келажак бунёдкори» давлат мукофоти ҳамда Ёзувчилар уюшмасининг «Йил китоби» лойиҳасида ҳам тақдирланди. «Кўрқма»нинг 3 минг ададдаги илк нашири 21 кунда сотиб бўлинди. Иккинчиси 20 минг нускада чоп этилди. Шу кунгача ушбу роман жами 50 минг нускада босилди ва жараён ҳали ҳам давом этмоқда. Ёшларимиз китоб ўқимай қўйишди, деган иттифоқ ва хавотирлар кундан-кунга ортиб бораётган бир пайтда юқоридаги рақамлар катта ҳушхабар, десак янглишмаган бўламиз. Истеъдодли ижодкор, актёр Эркин Бозоров «Муталаа» лойиҳасида ушбу асарни ноодатий бир тарзда таҳлил қилибдики, баъзи ўринларда ўйлашиб, айрим ижролардан кўзимиз ёшланди. Шунинг учун ҳам газетхонларимизга ушбу видеотаҳлилни матн кўринишида тақдим этишга қарор қилдик.

Муталаа қилаётган миллатнинг эртаси бор. Улар фикрлайдилар ва ўзгартирадилар! Муталаа – бу ҳаётдир. Халқимизда шундай гап бор, «Мард бир кунда ўлади, кўрқок хар кунин». Бу ҳаёт бизга бир марта берилади. Умрининг иккинчи нусхаси, иккинчи пойи йўқ. Шундай экан, бу ҳаёт кўрқиб яшаш учун камлик қилади. Ҳақиқатга тик боқибдан кўрқма. Ўз-ўзингни айтишдан кўрқма. Ўз-ўзинга айланишдан кўрқма. Кўрқмай катта орзу ва максалларни қил. Кўрқмага тик бок. Кўрқма. Бу «Муталаа» лойиҳаси. Биз сизга энг яхши китобларни илинамыз. Бугунги сонимиз ва эътиборимизда Жавлон Жовлиевнинг «Кўрқма» романи. Бундан юз йил олдин, яъни 1922-1923 йилларда Берлин кўчаларида минглаб, миллионлаб одамлар орасида портфел кўтарган ўзбек талабаларини ҳам учратиш мумкин эди. Улар орасида сочини икки кокил қилиб ўрган, гўзал, ҳали 16-17 ёшга кириб улгурмаган ўзбек кизлари ҳам бор эди. Афсуски, орзу-умидлари бир олам бўлган ана шу ёшлар кун келиб уларни ўз ватанларида муқаррар ўлим қутаётганини билишмасди. Жавлон Жовлиевнинг асосий қахрамонлари ўша юз йил олдин Германияга юборилган ўзбек талабалари дур. Лекин романда бугунги кун ёшларига ҳам алоҳида уруғ берилган. Бу икки давр ёшлари тарозининг икки палласига қўйилган. Ҳўш, уларни нима ажратиш туради? Уртадаги юз йил, улуг орзу-максаллар ва ниятлар.

XIX асрда Россия Туркистонни босиб олади. Шундоқ ҳам абгор бўлган халқ баттар аҳволга тушади. Мамлакатнинг бор бойлиги таланади. Энг муҳими гурури, шаъни, тили ва эътиқодига қасдатқич зарба берилади. Ёзувчи Жавлон Жовлиев бунга алоҳида уруғ беради ва фожиянинг сабабларини ердик халқнинг бирикмаслигида, илмсизлигида ва босқинчиларнинг ноинсоний сийасатида деб ифода қилади. Уртак учун сўнгги умид бўлган Кўкон мухторияти ҳам 1918 йилда қонга ботди. Кўконга ўт қўйилади. Миллатпарвар жадидлар ҳурриятга бошқа йўл билан эришишни ният қиладилар. Улар илмга чанқок йигит-қизларни хориз давлатларига ўқишга юборишни бошлайдилар... Жавлон Жовлиев «Кўрқма»нинг яратилиш та-



риҳига тўхталар экан, шундай ёзда: «Туркистондан сановати гуркираётган Германияга отланган ўзбек йигит-қизлари хақида кўпроқ нараса билишни, яқиндан танишишни истадим ва бунга шахд билан киришдим. Архив хужжатлари ва қатор тадқиқот маркасларидан талабаларга оид маълумотлар изладим. Бу изланишлар меваси ўларок тўрт йил ўтиб «Кўрқма» романи чоп этилди». ...1922 йилда Совет мафкурасининг улкан соясидан ташқаридаги оламга – Германияга 70дан ортик Туркистон ёшлари юборилди. Улар орасида ўзбек ёшлари билан бирга қозок, кирғиз, тожиқларни ҳам учратиш мумкин эди. Чунки боболаримиз Туркистон халқларини бир бутун ва бирга тараққий этишини истарди. Қозок, кирғиз, ўзбек, тожиқ, туркман, қоракалпоқ – бари бир онанинг эгиз фарзандлари каби қонимиз ва суягимиз муқаддас Туркистон лойидадан қорилган. Ўша пайтда талабаларни хоризда ўқитиш учун кўнлаб фондлар ва бирлашмалар пайдо бўлди. Булардан «Турон», «Тарбия атфол», «Жамияти хайрия», «Нашир маориф» ва «Кўмак» қабилар. Булар китоб тутиб, кўзи ёнган миллат болаларини чет элда ўқитиш ва одам қилиш учун очилган бўлиб, бу йўлда улар соатлаб бозор эшигида қутиб сарғайдилар. Журналист бўлиб омалашаётган рўзномаларда мақолалар ёзишди, шоир бўлиб бадий кечалар уюштиришди. Арбоб бўлиб, тўрға чиқиди. Актёр бўлиб, театр сахнасини нидо қилишди. Кези келганда эса, ҳатто гадолий килиб, бозорларга чиқдилар. Халққа шундай ишлатмайман, барчаси Европада таълим олаётган болалар учун, бир неча сондан бери «Кўмак» жомамиз билан маблаг ахтариб, рўзномамизга эълон берамиз. Лекин тушаётган ақчалар дунёнинг турли бурчакларидаги таълим олаётган болаларимиз учун етмаётди. Бу биз учун уят. Аларнинг баъзилари жуда оғир аҳволда бўлиб, маншатлари харобдир. Миллат тақдирини хал бўлаётган бир пайтда, нима учун ўрози уриштириб юрибсан? Тўхтат!» Қандай ажойиб манзара: Германиядаги талабаларни ўқитиш учун Чорсу бозори олдида гадолий килиб юрган одамлар. Ўзи танимаган, умрида кўрмаган – бировни болалари учун гадолий қилишга рози бўлиш мумкинми? Ўз болангиз учун

70 нафар талаба эғаллаб олади. Архив титқилайди, Муаллим буvasидан гап олишни хоҳлайди. Унинг фикри тоза, теран, миллий мезони аниқ. У атрофида юрган соткинлардан, эшақкуртлардан, қўйлардан, қони айниганлардан, жигари қотиб, юраги юрмаётганлардан норози бўлиб юради. Романдаги қахрамонларнинг аксарияти негадир фақат жигар касали билан оғрийди. Биламизки, жигар инсон қонини тозалайди ва ўзи дардларни олиб қолиб, бизга яхшиликни илинади. Шунинг учун ҳам биз яқинларимиз ва туганганларимизни «жигар» деб айтмаймиз. Роман қахрамони нега жигар касалига йўлиқди? Ёзувчи нимага ишора қиляпти? Миллатнинг қони хақида гап кетмаяптимикин? – Ҳой, тўхтанг. – Нима учун ўқийсиз? – Шошманг. – Нима учун талаба бўлгансиз? 10 минг йигит-қиз ўқийдиган институтдан бир талаба кидирдим. Германияда ўқиб қайтган йигит-қизлардек қахрамон, улардек мард, максали катта, нияти улуг бўлган бир талаба. – Сен нима учун ўқияпсан? – Сени нима ишинг бор. Кимдир айтиб қўйдими ҳўқиз сотиб кирганими? Гапир. Йўқ, кўрқма. Ўзим ҳам 10 та қўйини бошини еганман талаба бўлиб. Нима учун кирдинг институтга? Шу пулга машина сотиб олсанг бўлардику? Ҳеч ўйлаб кўрмаган эканман, курсдошимдан телефон килиб сўрасам бўладими? Балки яхшироқ жавоб берса кўчирарман. Йўқ, у каердан билсин сени нима максалда ўқиб юрганингни. Бука билан гаплашиб кўрчи, у ўзини нимага қурбон бўлганини сендан яхшироқ англаган керак. Мен хар кунни юзлаб талабаларга шу саволни берадим. Улар орасида шу етмишвойлардан бирорта чиқиб қолар деб юрардим. – Мен нима учун ўқияпман айтайми сенга? Мардикор бўлмаслик учун, одамдай яшаш учун ўқийман. – Мен катта ойлик олиш учун. – Мен эса яхшироқ эрга тегиш учун. Ҳа-я, ўқиган қизларни совчиси кўп бўлади, улар қолиб кетмайди. Ҳатто, аллақачон ифрат чегарасидан чиққан бўлса ҳам. Йўқ, ҳеч қим ўша етмишвойлардек жавоб бермасди. Биз шу миллат учун ўқияпмиз, унинг тараккиёти, эртаси учун ўқияпмиз ва унинг учун ўляпмиз... Мен шундай жавоб кутардим. Ҳўш, нима сабабдан айнан Германия танланди. Бу саволга ўша ерда таҳсил кўрган, Германияда ўқиган талабаларнинг сардори роман қахрамонларидан бири Абдуваҳоб Муродий шундай жавоб қайтаради: «Бизларнинг

Германияга юнатилишимиз сабаби 21 та дорилфунун ва бошқа сонсиз юқори ва ўрта даражали мактаблар бор у ерда. Ўша даврда, бир аср аввал Германия дорилфунунлари мактаб бўлишдан бошқа яна бир қошиқлар, ихтиро қилувчилар ётоғидир. Германия дорилфунунларидаги ўқитиш усули ҳеч бир ерда йўқдир. Талаба дарсини тинглар экан, мударрис бутун кўрсатиб бериш шарти билан бир соат сўзлар, талабалар бутун тажрибани ўз қўллари билан бажаришар, шу сурат билан унинг миёсида фан яшар ва туғилар, ихтиро, фикр уйғонар, дорилфунун мударрислари эса мамлакатнинг энг мумтоз сиймоларидир.» «Қизил байроқ» газетасининг 1922 йил 4 август сони: «Муродий санаган сифатлар юз йил олдин уларда бўлган. Бизда эса йўқ. Афсуски, юз йилдан бери афсуски, дейишдан нари-берига ўтмадик, аслидан.» Ўзбек халқининг биринчи агрономи Абдуваҳоб Муродий романда тез-тез пайдо бўлади. Замонлар алмашинаверади. Ҳақиқатлар очилаверади. Ўқувчи икки давр орасида қайиқдай сузади. Ўша пайт Германиянинг турли шаҳарларида Россиянинг ўзидан 10 минг, Япониядан 4 минг, Туркиядан 3 минг талаба борган. Мисрдан 300, Ҳиндистондан 500, араблардан 200, эронликлардан 500, афғонлардан ҳам 500 нафар талаба таҳсил кўриши дунё илм-фанини ўқитишда немисларнинг қанчалик устамон бўлганини кўрсатади. Бундан ташқари, Олмоний таълими мустамлақа давлатнинг бир мафкурага қатъий бўйсундирилган педагогик технологиялардан кескин фарқ қилиб, эркин фикр ва оқиқ илмий тадқиқотларга асосланган, таянган эди. Шунинг учун ҳам Россиянинг бошқа йирик шаҳарларида таҳсил олган ўзбек ёшлари билан Олмонияда ўқиганларни асло солиштириб бўлмайди. Улар буюк рус фожиядан холи ва барча нарасага очик фикрда ва аниқ илм-фан натижаларидан келиб чиқиб ёндаша биларди. Ҳўп, юз йил ўтди, нима ўзгарди? Энг аламисси кейинги юз йил – 2123 йилда бизни нима қутади? Ёзувчи агар ҳозир ўзгармасди, таълим олмасди, кейинги юз йилнинг ўта хавотирли эканлигидан оғохлантиради. «Кўрқма» шундай лира-трагедик, мудхши тарих, аламли ва максалсиз одамлар ҳаёти. Романда бугунги кун ёшлари телефондан бош кўтармайдиган, қизлар билан вақт ўтказишни хўш кўрувчи ва кўринишдан хиж қўлаб бўлувчи қоравай мисолида очиб берилган. Романдаги

У умрида гарс қилмаган, гарс таъёрлаш нияти ҳам йўқ. Мен мудрайман, телефончи ўзин уйнайди. Ваннада сув шариллаётди. Қоровой фақат оқариш учун ўқишга кирган. Яна бир талаба қизларни телефонда «ўрайди». Биз ўқишга бориб-келувчилар. Қулгим келади аҳволимиздан. Йиғлаёлмайман чунки.



Тўғилмоқ оналик эмас»

талабалар ўткинчи нарсаларга мубтало бўлган, мақсадлари ва орзуларини ўлдирган ёшлар тиссолидир. Бош қахрамон улар орасида ўша Германияда ўқиган талабаларни излайди. Уларнинг орзуларини қидиради, лекин тополмайди.

Айрим талабалар ўйинлар, ижтимоий тармок боткоғига ботиб кетган. Фақат икки бош бармоғи ишлайди. Дунёдаги энг севган ўйини тўнка ва пичок. Ёғоч айланаверади, пичокни санчаверасан, санчаверасан. Пичок устма-уст келиб қолса, ўйин янгидан бошланади. Шу ўйинни 18 соат тинмай ўйнайди. У умрида дарс қилмаган, дарс тайёрлаш нияти ҳам йўқ. Мен мудрайман, телефончи ўйин ўйнайди. Ваннада сув шариллаётди. Қоровой фақат оқариш учун ўқишга кирган. Яна бир талаба қизларни телефонда «ўрайди». Биз ўқишга бориб-келувчилар. Қулгим келади аҳволимиздан. Йиғлаёлмайман чунки.

Ровий доим қулиб яшайди. Ўйлайди, мудрайди, ухлайди-уйғонади. Лекин ҳеч қачон йиғлай олмайди. Ватанинг учун бирор фойданг тегмай умринг ўтаётгани, мақсадсиз қариётганини билиш нақалар дахшат.

«Қўрқма» ҳис-ҳаяжон романи. Ундаги бадий ғоя кенг миқёсли. Унда миллат ва ватан тақдир бор. Ундаги муаммо бугун ва бир аср олдин ёшлар ҳаёти мисолида туш ва хуш оралиғида ифода этилади.

Романда бош қахрамоннинг Лолага бўлган самийий ва болаларча бегубор муҳаббати бор. Лола Берлинда кўз шифокори бўлиш учун ўқийди. У аянчи ўтган кашшоқликдаги болаликга қайтишни истамайди. Йигитнинг бу дунёдаги ёлғиз таянчи, умиди ва келажак ҳам шу киз эди. Афсус, у ҳам... Дунёда муҳаббатдан бўлак наво йўқ. Дунёда муҳаббатдан бўлак дард йўқ. Бефарзанднинг ҳам, беватанининг ҳам дарди шу. Сенинг қисматинг торларини чертади. Уйларинг, ҳаёлларинг, тушларингни унга соғайди. Сен гоҳида бахтсизларга хавасда қарайсан, гоҳида тескариси. Гоҳ ўз қисматинг ёшиқларига кўниб яшайсан. Бешикда ётган бола қўллари боғлиқ холда ухлашга ўрганиб қолгани ва йиғлаб-йиғлаб кўнгани каби уйкуга кетасан. Лола сен наво таратишдан тўхтама, асло ундай қила кўрма, мен кулоқ тутаман сенга, ёлғиз сенга.

Юборилган Туркистон болалари ўз ватанида олган маълумотларига қараб Германиянинг Берлин, Хайдилберг, Дармштат каби шаҳарларидаги нуфузли олий ўқув юртиларига ёки тайёр-

лов курсларига жойлашадилар. Бухородан юборилганлар орасида вояга етмаган болалар ҳам бўлган ва улар Олмониянинг турли шаҳарларидаги мактабларга қўйилган. Романини ўқир экансиз, юз йил олдинги Германияга тушиб қолгандай бўласиз. Талабалар Германияда юкори даражада таълим оладилар. Кетганларидан ўз тилидан бошқа

курашни давом эттирадилар. Германияга талаба жўнатиш у ёқда турсин, ҳукумат у ёқда ўқиётганларни йўқ қилиш пайига тушади. Таътилга келган талабалар ортга қайтарилмайдилар. Бу ноҳақликдан норози бўлиб, жонига ҳасд қилганлар ҳам бўлган. Талабалар тушуниб етдики, Германияга ортик бола жўнатиб бўлмайдилар. Кўп тахдидли гап-

кизгалдоқ қосасидай нори бор эди. Киз қўқси қонланнидан аввал кўзини юмди: қаршисида отаси ва бир ўқ турарди. Отаси меҳрибонлик кўрсатиб, сочини силаб қўйгандай бўлди. Нималарнидир таъқидлади ҳам. Сўнг болаликдаги каби пешанасидан ўпиб қўйди. У миллат кизи эди, мард киз. Овози чикмади, бақирмади, аммо ичидан кизгалдоқ қосасидай кўркув бор эди. Ва, ачинди шу тиниқ юзларга доғу, лаб тегмай ўлиб кетаётганига...

Асарда киз ва отанинг ҳаёлий суҳбатлари шундай ифодаланади:

– Қетманг ота...

– Бу ўлим олди алаҳсираш эмас, оқибатли кизнинг меҳрибон ота билан рози-ризокчилиги. Унга тўсиқ бўла олди на шайтон, на ўқ.

– Қизим, ўқишга борма.

– Бурчим ва ажалим миллат учун ўқимок.

– Сен менинг номусимсан кизим.

– Бир сиз эмас, миллат оталари учун номусим – қасам.

– Нега умринг сахаридан салом бердинг ўлимга менинг малагим. Гўзалим, маъсумам-онам.

– Қимдир болаши керакку ота. Ўқимоғи керакку ўзбек аёллари ҳам. Ватан учун жонини бериши керакку туғишдан ортик. Мен она бўлишдан кўра, юксак ўқимокни танладим. Хато қилдимми, ота? Оналар кўп, ичлари тўла бола. Мен уларни фарзандларини тўлаб, миллат учун илмга, маърифатга бирлаштирмоқчи эдим. Аммо хозир қаршимда бир ўқ ва бир бахти қаро ота.

– Барига нега кўндинг, бўйинга олдинг ҳаёлингга келмаган айбловларини?

– Ота, отажоним, жоним отам. Қизбола отасини севади. Бари бўлгонларни смирдим. Токи, бошинг омон бўлсин деб. Қизларинг бор мендан зиёда. Ҳали нозик, хали оч. Орзулари осмон онам. Сочим толалариданда ортик мени сева. Асло жасадимни уларга кўрсатма. Синглимга, севганимга улар хали қабрим устига баҳор гуллариинг ифори билан келар...

– Ўқ фурсат бермади ортик дийдорга. Бўлмаса минглаб миллат қизларининг ҳам тушларига кирмоғини айтарди. Ота билан киз сўзлашарди сўнгги бор аламда.

– Бевовта қиламан тушларингизда. Сахарда, қор ёқанда, шу кунда. Мен сизларга айтишим керак, кўрқокларни тугмоқ оналик эмас. Мен сизларнинг ҳаёлларингизни бузиб бораман. Токи, бокиралигингизни бузгани каби эрларингиз. Миллат қизлари, келажак оналари. Эрларингизни тик қўйманг. Уйкуда, муд-

” «ҚўРҚМА» ҲИС-ҲАЯЖОН РОМАНИ.
УНДАГИ БАДИИЙ ҒОЯ КЕНГ МИҚЁСЛИ.
УНДА МИЛЛАТ ВА ВАТАН ТАҚДИРИ БОР.
УНДАГИ МУАММО БУГУН ВА БИР АСР
ОЛДИН ЁШЛАР ҲАЁТИ МИСОЛИДА
ТУШ ВА ХУШ ОРАЛИҒИДА ИФОДА
ЭТИЛАДИ.

хорижий тили билмаган ёшлар ҳам кўп бўлиб, улар ватанга қайтаётганида камиди 3 дан ортик тили билар ва немис тилида илмий-тадкикот юритишга қодир юкори малакали мутахассисларга айланишганди. Ва, энг мухими, ўзбек болалари ҳам ҳеч қандай қолдиқсизлигини, ҳатто айрим соҳаларда немис талабаларидан ҳам яхшироқ салоҳиятга эга эканлигини исбот етдилар.

Буларнинг барчаси тўғри йўлга қўйилган таълим-тарбиянинг мақсули эканлигини аниқлайдилар ва Туркистон матбуотида хат йўллаб, энди бизга 70 талаба эмас, 70 минг талаба керак, деб хайкирадилар. Бугунги кунда ватанимиз учун биргина мутахассиснинг қанчалар аҳамиятли эканлигини кўряпсиз. Агар ўша талабалар тирик қолиб, миллат равиқни учун ишлаганида эди...

– Билмадим, балки бугунги кунда халқ ўзгача шароитларда умргузаронлик қилган бўлармиди. Бу ҳақда ўйлашнинг ўзи ҳам одамни ҳаяжонлантиради. Романда Берлинда ўқиётган талабаларнинг хайратлари ва таассуротлари, севги-муҳаббат, рус айқоқчилари солган низолағача маҳорат билан тасвирланган. 1925 йилда Ўрта Осиё давлат университетни ректори Меерсин уларни қайтариш учун махсус топширик билан Берлинга иккинчи мартаба боради. Аммо мақсадида етолмайди. У талабаларнинг жиддий қаршичилигига учрайди. Талабалар илмининг тоза булоғи сувларидан таътиб кўргач, асло совет таълимнинг чирик ва кип-қизил қўлмақларидан тотишни, дипломсиз қайтишни истамайди.

Шундан кейин, улар таъминотдан узилади, «Кўмак» ёпилади. Аммо ёшлар ўқишни,

сўзларга қарамай, шу миллат учун ўқиган, меҳр-муҳаббати ва кўмаги учун шу халқдан ўзини қарздор деб билган талабалар бирин-кетин ортга қайта бошлайдилар. Улар ватан ривожини учун ҳам ишлаб чиқаришда, ҳам олий ўқув юртиларида хизмат қила бошлашади. Яъни, Германияга талаба жўнати олмадик, Германия таъминоти шу ерда яратамиз, деган олий мақсад билан ҳаракат қилдилар. Аммо 1929 йилга келиб уларнинг айримлари хизма қилинади. Қолганлари ортидан кузатишга одам ёлланади ва орадан 9 йил ўтиб, ортга қайтган барча талабалар отиб ташланади. Чўлпон, Фитрат, Абдулла Қодирийлардан бир неча кун ўтиб, 1938 йилда ортга қайтган талабаларимиз қони билан тупрокларимиз бир бўлди...

Отиб ташланган йигитлар ичида миллатнинг илм-маърифатли қизлари ҳам бор эди.

– Худойим, барчаси тўхмат, таълим учун Олмонияга кетар эканмиз, на менда, на шўрлик отамда бирор совук ният бўлган. Қизикқанман, ўқимокчи, тоза илм хавосидан бахраманд бўлмоқчи бўлганман. Таълим олиш шу қадар дахшатли жиноятми?

– Отанг сендан кўра огирроқ жазога лойик.

– Майли мен порахўрликка кўндим. Аммо отамни тинч қўй. Уни айбӣ йўқ, айби мени ўқитгани, холос. Илтимос қиламан у оғир касал, бу азобларни кўтара олмайди, ўлиб қолади.

Афсус, бу савол-сўроқлардан кейин жоҳиллар кизини отишади, отасини эса кўмиб бўлишганди. Бирок киз буни ўлаётганда ҳам сезмайди. У ишонади, бутун дунёни алдаган тузумга. Барча тоза қалбли одам боласи каби. Қизнинг чап елкаси устида



1843 йили Санкт-Петербургда туғилган, Осиёни босиб олинишида ўта фаоллик кўрсатган, хусусан, Фарғонада губернаторлик қилган, 33 ёшида сифилис касаллигидан ўлган генерал Михаил Скобелевнинг «васият»ларидан:

1. Миллатни йўқ қилиш учун уни кириш шарт эмас, маданияти, санъати ва тилини йўқ қилсанг бас, тез орада ўзи адойи тамом бўлади.
2. Тўқилган ҳар томчи рус қони учун душман – Ўрта осийликлар қонини дарёдек оқизаман.
3. Дунё славянларники, славянлар Россияники...
4. Очиғи мен урушни яхши кўраман. Хар бир миллат ўз худудини табиий чегараларгача кенгайтириш хуқуқига эга ва бу қонунийдир.
5. Биз славянлар албатта Босфор ва Дарданелни эгаллашимиз зарур, акс ҳолда хар қандай тарихий аҳамиятимизни йўқотамиз. Агар қўлимиз бу бўғозларга етмасе, ерларимиз қанчалик чексизлигига қарамай, биз халок бўламиз.
6. Мен шуну қўриб, ҳис қилиб турибман ва баъқорат қилиб, айтманки, славянлар бир кун Германияни ейти. Немисларга асло тоқат қила олмайман...



**ЭНЕРГИЯ
РЕСУРСЛАРИДАН
КИМ ҚАНДАЙ
ФЙДАЛАНЯПТИ?**

Маълумотларга кўра, Ўзбекистондаги 6,1 миллион аҳоли абонентнинг хар биттаси 100 ваттлик 1 донна чўғланма лампани атғи бир кеча 10 соат (кечки соат 21:00 дан эрталабки соат 7:00 гача) ўчириб қўйса, бир йилда 2 миллиард 226 миллион 500 минг киловатт электр энергияси (бу мамлакат аҳолиси умумий истеъмол ҳажмининг 11,47 фоизи дегандир), тежалар экан. 1 донна LED лампаси ўчирилса, 267 миллион 180 минг киловатт (умумий истеъмол ҳажмининг 1,38 фоизи) электр энергияси иқтисод қилиниб қолмак. Бир донна чўғланма лампани замонавий LED лампасига алмаштириш орқали эса ойнага 22,4 киловатт-соат, йилга 268,8 киловатт-соат электр энергияси тежаланишини биларимизми? Шунинг ўзиёқ амалдаги 295 сўмлик тариф бўйича ҳисобланганда, ойнага 6608 сўм (ёки йилга 79 минг 296 сўм) маблаг тежалар имконини беради. Энергия ресурсларини асраб-авайлайлик азиз юртдошлар!

Уз фаолиятини бошлаган аёлларга 6 ойдан 12 ойдан мўлдатга 300 млн. сўмгача, 2 йилгача ишлаганларга 1 млрд. сўмгача, 2 йилдан зиёд ишлаганларга 3 млрд. сўмгача кредитлар ажратилиши ҳам имтиёзларнинг мавсумий эмаслигини аниқлатади.

Энди бир йилда

нафар хотин-қизларни тадбиркорликка ўқитиш мумкин

Пойтахтимизда «Тадбиркор аёл» халқаро ишбилармон аёллар ассоциацияси ҳамда Инновацион ривожлантириш агентлиги ҳамкорлигида «Мамлакатимиз хотин-қизларини тадбиркорликка ўқитиш бўйича онлайн платформа яратиш» лойиҳасининг тақдироти бўлиб ўтди.

Ушбу лойиҳа доирасида хотин-қизларда тадбиркорлик кўникмасини шакллантириш, уларни касб-хунарга йўналтириш, ўқитиш ва қайта тайёрлаш, малакаларини ошириш учун «Анор» онлайн платформи ишлаб чиқилди. Шунингдек, турли йўналишларда хотин-қизлар фаолияти самарадорлигини ошириш, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишга қаратилган ўқув-услубий кўлланмалар ҳам яратилди.



энди тадбиркорликка қадим кўйётган опа-сингилларимиз учун энг ишончли платформа бўлиб қолади.

Қишлоқ жойларида аёллар раҳбарлигидаги кичик тадбиркорлик субъектлари 2025 йилгача мол-мулк солиғи ва ер солиғини 50 фоизга қаматирилган ставкада, ижтимоий солиқни эса 1 фоиз ставкада тўлайдилар. Ўз фаолиятини бошлаган аёлларга 6 ойдан 12 ойгача мўлдатда 300 млн. сўмгача, 2 йилгача ишлаганларга 1 млрд. сўмгача, 2 йилдан зиёд ишлаганларга 3 млрд. сўмгача кредитлар ажратилиши ҳам имтиёзларнинг мавсумий эмаслигини аниқлатади.

Бир сўз билан айтганда, аёллар тадбиркорлиги бугунги кунда иктисодий ўсишнинг муҳим шартларидан бирига айланди. Зеро, ижтимоий йўналишдаги лойиҳалар ва бизнеснинг аксарияти аёллар томонидан амалга оширилмоқда.

Агар ушбу лойиҳа доирасида ягона ОНЛАЙН ўқитиш тизими яратилса, ҳар бир худуддан бир ойда ўртача 60 нафар, мамлакат бўйича 840, бир йилда эса 11 760 нафар хотин-қизни тадбиркорлик асосларига ўқитиш имконияти яратилади.

Алоҳида эътироф этиш жоизки, ўтган даврда «Тадбиркор аёл» ассоциацияси маҳаллий ва ҳорижий ташкилотлар билан ҳамкорликда аёлларнинг иктисодий, молиявий ва ҳуқуқий билимларини оширишга қаратилган юзлаб лойиҳаларни муваффақиятли амалга оширди. Шунингдек, таълим дастурлари баробарида бизнес қилмоқчи бўлган аёллар учун ўқув методик

кўлланмалар ҳам ишлаб чиқилиб, минглаб опа-сингилларимизга бепул тарқатилди. Натижада, 50,3 миң нафар хотин-қиз тадбиркорлик кўникмаларига эга бўлди. Уларнинг 80 фоизи иш билан таъминланган бўлса, 43 миң нафари ўз тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйишга муваффақ бўлди.

Ушбу онлайн платформа ҳам хотин-қизлар учун халқаро меъёрлар ва стандартларга мувофиқ инновацион технологиялар, ҳуқуқий хужжатлар, ўқув-услубий кўлланмалар асосида онлайн бизнес таълим тизими ва дастурий йўриқномаларини яратишни ҳам кўзда tutади. Энг муҳими, бу жараённинг энг қиммат жиҳатлари – бизнес тренинглари ўтказиш, кофе-брейклар, тушлик, йўл ҳаражатлари, бизнес тренерларга гонорарлар, бино ижараси ва бошқа ташкилий ишларга кетадиган харажатлар тежаб қолинади. Яна бир қўлайлиги шундаки, «Анор» орқали хотин-қизлар уй-рўзғор юмушларидан ажралмаган ҳолда тадбиркорлик асосларини ўрганиш имконига эга бўлади.

Лойиҳа натижаларини тижоратлаштириш истиқболлари дастурий таъминотни амалиётга таъбиқ этиш билан боғлиқ бўлиб, тижорат банклари томонидан бериладиган кредитларни олиш, ўз бизнесини ривожлантириш мақсадида хотин-қизларга маълум миқдорда мавлаб тўлаб масофавий таълим олиш имконини беради. Яна бир гап: ушбу дастурий таъминотдан бошқа турдош таълим муассасалари ҳам фойдаланишлари мумкин.

Ўқув курсларининг ҳар босқичи ва йўналиши бўйича таълим даражасини баҳолаш учун тестлар тўплами ишлаб чиқилди. Ягона онлайн платформа яратишнинг илмий ва амалий жиҳатлари ўрганилади. Онлайн платформа айтиш жоизки, кўп модулли, босқичма-босқич инновацион ўқув дастури бўлади.

«Анор» платформи мамлакатнинг исталган бурчагида яшовчи хотин-қизларга бизнес соҳасида таълим олишга ёрдам беради. Уни муваффақиятли туғатганлар махсус сертификатни қўлга киритишдан ташқари, амалиётчи тадбиркорларнинг улкан тажриба мактаби билан ҳам танишдилар. Мазкур платформи яратиш лойиҳаси 2022 йилда Инновацион ривожлантириш агентлигига тақдим этилган эди. Шундан кейин иктисодчи, ҳуқуқшунос ва тадбиркорлик бўйича катта тажрибага эга мутахассислардан иборат махсус гуруҳ ушбу платформи ишлаб чиқди.

Қарийб икки йил мобайнида мамлакатимизнинг етук олимлари, социолог ва ИТ соҳаси мутахассислари билан ҳамкорликда «Анор» яратилди. Платформанинг қўлайлиги, энг муҳими, унга бўлган эҳтиёж ҳақида гапирганда 5 та йўналишни ўз ичига олишини алоҳида таъкидлаш жоиз, тили жуда оддий.

Биз опа-сингилларимизни шу йўл билан кўпроқ камраб олиб, уларга кўпроқ таълим беришни ўз олдимишга мақсад қилиб қўйганмиз. Бу платформага нафақат мамлакатимиздаги, балки кўшни мамлакатлардаги

ҳамкорларимиз ҳам, ҳамкасбларимиз ҳам катта кизиккиш билдиришяпти.

Бу бежиз эмас, албатта. Чунки лойиҳа ижроси баробарида тадбиркорлик асослари нолдан бизнес бошлаш, маркетинг, кадрлар бошқаруви, ҳисоб юритиш ва солиқ, ижтимоий тармоқларда бизнесни бошқариш каби ўқув курсларининг педагогик ракамли анимацион дизайни ҳам яратилди.

Бошқача айтганда, лойиҳа аёлларга турли соҳаларда бизнес юртишида кўникма ҳосил қилиш, билимларни ўргатиш тизимини шакллантирадиган инновацион махсулот ва ўқув тизимини яратишни ҳам ўз ичига олади.

Шу ўринда «Оддийдан мураккабга» тамойили асосида бизнес ўргатиш асосида тадбиркорликни нимадан бошлашни билмайдиган аудиторияга тақдим этиладиган модулли схемага қарасак, ҳар бир модул тадбиркорликнинг алоҳида босқичига бағишланганини кўрамиз. Шунингдек, платформада тадбиркорликни тартибга солувичи қонунчилик, бухгалтерия ҳисоби, солиқ тортиш, бозор таҳлили, маркетинг, меҳнат қонунчилиги ва бошқа йўналишлар ҳам эътиборга олинган. Ушбу курсни туғатган аёлларга сертификат берилди ва у олган билим ва тажрибасига таянган ҳолда мустақил тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиши мумкин бўлади.

Илҳом НАСРИЕВ,
юрidik фанлари доктори,
лоийханинг ҳуқуқий
эксперти

«АНОР» ПЛАТФОРМАСИ МАМЛАКАТНИНГ ИСТАЛГАН БУРЧАГИДА ЯШОВЧИ ХОТИН-ҚИЗЛАРГА БИЗНЕС СОҲАСИДА ТАЪЛИМ ОЛИШГА ЁРДАМ БЕРАДИ.

Ўринда аҳолиси зич ёки марказдан олис худудларда бу масала энг долзарб масалага айланганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз. Маълумки, жами аҳолисининг 17 миллиондан зиёди аёллардан иборат юртимизда аёл тадбиркорлар сафи ҳам тобора кенгайяпти. Айрим манбаларда аёллар жами тадбиркорларнинг 25-27 фоизини ташкил этаётгани қайд этилмоқда. Янги – «Анор» онлайн платформи эса ана шу жараёнда энди-

✓ Ибрат

Инсон ўлими олдида НИМАДАН АФСУСЛАНАДИ?

«Титаник» ҳалокатга учраганда кема бортида миллионер Жон Жейкоб Астор IV ҳам бор эди. Ушанда унинг банкдаги маблағи 30 та «Титаник»ка ўхшаган кема қурлишига етарди. Ўлим ҳавфи билан юзма-юз келган Астор IV, унинг дунёқарашича, маънан тўғри қарор қабул қилади: қайқдаги ўрнини икки нафар кўркиб кетган болакайга бўшашиб беради. Америкадаги «Масу's» йirik дўконлар тармоғининг эгаси Исидор Штраус ҳам: «Мен ҳеч қачон бошқалардан олдин кутқарув қайиғига чикмайман», – дейди. Унинг хотини ҳам қайиққа ўтиришдан бош тортади ва ўз жойини яқинда ёлаган хизматкори Эллен Бердга беради. Аёл ҳаётининг сўнги дақиқаларини эри билан бирга ўтказишни лозим кўради. Яъни, бой-бадавлат одамлар ўзларининг маънавий ақидаларидан чекинмаган кўра, бойликлари ва хатто ҳаётларидан мосуво бўлишни афзал қўришади. Айтиш мумкинки, уларнинг танлаган йўли инсоният цивилизацияси ва одам табиятининг накадар ёркинлигини ҳам намойиш этади.

Архимандрит (монахларнинг епископгача бўлган олий монахлик унвони, таржумон) Тихон Шевкунов кунарларинг бирида шундай деган эди: «Мен одамларнинг ўлимидан олдин тавба-таззариусини кўп марта эшитишимга тўғри келган. Улар ўз тазаруларидан ортиқча миллион ишлаб топмаганларидан, ҳашаматли уй кура олмаганларидан, ишда муваффақият қозона олмаганларидан, қайғуриб, афсус-надомат чеқмайдилар. Аммо одамлар умрларининг сўнги нафасида биринчи навбатда эзгу ишлар қила олмаганлари, яқинларига яхшилик қилиш ва ёрдам бера олишмагани, уларни қўллаб-қувватламагани ва хатто тасодифий танишлари қорига ярамаганларидан астойдил афсус чеқайдилар». Одамлар маънавиятдан мосуво бўлмаслик, ахлоққа таянишлари ва фазилатлар эгаси бўлишлари қанчалик муҳим! Шундай одамлар орамизда борми? Албатта бор...

Олийжаноб характерга эга бўлиш ҳаётдан, айниқса, бойликдан кўра қимматли ва кадрлидир.

Рус тилидан Жалолидин САФОВ таржимаси.

✓ Вазиятга назар



ЕТТИ МИНГ ЙИЛЛИК ТАРИХ ИНСОНИЯТ КЎЗ ОЛДИДА

ВАЙРОН БЎЛИШИ МУМКИН

Навбахор туманидаги Сармишсой қояларига битилган тасвирлари билан ном чиқарган. Соҳа мутахассисларининг айтишларича, етти миң йиллик тарихни ўз бағрида асраб келаётган ушбу худудда тахминан ўн миңдан ортиқ ноёб қоятош битиклари бор. Сармишсойда тош даври макон ва манзилгоҳлари, қадимий мазор ва суғориш тармоқларининг қолдиқлари, устахоналар, шахта ва кўхна қишлоқ харобалари ҳам сақланиб қолган бўлса-да, уларнинг аксарияти ҳанузгача тадқиқ қилинмаган.

Тумандаги архитектура ёдгорликларини асраб-авайлаш, келажак авлодга нес-нобуд қилмай етказиш ишлари ҳам кўнгилдагидек эмас. Жумладан, 2016-2023 йилларда тумандаги архитектура ёдгорликларининг техник ҳолати инвентаризациядан ўтказилганда 36 та объектнинг авария ҳолатида экани, 40 та объект эса жиддий таъмир-

га муҳтожлиги аниқланган. Атиги 3 та объектнинг ҳолати қониқарли, ҳолос.

Айрим архитектура ёдгорликлари сизот сувлари ва шўрлик натижасида ўпирилиб бормоқда, йўللار эса буткул таъмирталаб аҳволга келиб қолган. Уларга давлат муҳофазасига олинганлиги тўғрисида ҳеч қандай белгилар қўйилмагани сабабли хатто одамлар қурилиш учун бу ердан тупроқ ва тоғ тошларини олиб кетишяпти. Мутахассисларнинг таъкидлашича, ноконуний ўзлаштириш ва эгаллаб олишлар натижасида муҳофазалинши лозим бўлган худудлар ҳам қискариб бормоқда.

Яна бир муаммо: Ўзбекистон Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги «Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 майдаги «Сармишсой», «Шаҳрисабз», «Термиз»

ва «Кўкон» давлат музей-кўриқхоналари фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги қарорлари асосида «Сармишсой» давлат музей-кўриқхонаси қайта ташкил этилган эди. Бирок бугунги кунда ушбу музей-кўриқхона худуди аянчли ҳолатда.

Гап шундаки, ҳуқуқатнинг 2019 йил 16 мартда қабул қилинган «Қимматбаҳо металлларни олтин изловчилар усулди қазиб олиш фаолиятини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги қарори асосида маҳаллий ва ҳорижий тадбиркорларга «Сармишсой» давлат музей-кўриқхонаси ён-atroфидаги ерлар бўлиб берилган эди. Натижада бугун нафақат табиатга, балки музей-кўриқхона худудига ҳам катта зарар етказилмоқда.

Келишувга кўра, тадбиркорлар ўз ишларини ниҳоясига етказганидан кейин сойларни асал ҳолатига қайтариш, қазилган чуқурликларни тўлдирлишлари

керак эди. Аммо бу ишлар умуман бажарилмади. Соилар 30-50 метр чуқурликда қавланиши натижасида шағалтош ва қум уюмлари пайдо бўлди. Буниинг таъсирида булоқ ва ер ости сувлари йўқолиб бормоқда. Бу нафақат жонзотларга, ўсимлик дунёсига ҳам жиддий зарар етказмоқда.

«Миллий тикланиш» демократик партиясининг Навоий вилоятидаги депутатлари ушбу масалани вилоят Кенгаши сессиясига киритиш ҳамда тегишли идораларга депутатлик сўрови чиқаришга тайёргарлик кўрмоқда. Чунки, Сармишсой ва унинг худуди билан боғлиқ амалдаги қону-қоидаларга ўзгаришлар киритилмас экан, етти миң йиллик тарих инсоният кўз олдида вайрон бўлиши, худудда экологик фалокат юз бериши турган гап.

Русам САЙЛХОНОВ,
Олий Мажлис Қонунчилик
палатаси депутати ёрдамчиси



ОДИЛ ШАФИҚ

Томошабинлар

Ёлгонни ёлғону ростни рост демас, На ҳақдир, на ҳақам, томошабинлар. Шарият йўлида энги хўл эмас, Аммо, этаги нам, томошабинлар.

Пастқам деворлардан бўй чўзар мамнун, Жангларда боши ҳам, томошабинлар. Кечагина ўзи ўйнатган маймун, Бугун атрофда жам, томошабинлар.

Гоҳ белда зуннор, гоҳ боида салласи, Динига номаҳрам, томошабинлар. Бузуқ тарозининг оғир палласи Бўлиб келган ҳар дам, томошабинлар.

Дил мулкида шохлик даъвосин қилар, Ўз нафсига қарам, томошабинлар. «Чўпонга дўст бўлиб, бўрилар билан Кўйни кўргай баҳам», томошабинлар.

Баъзан, беғам, баъзан, ташвишдадир у, Кўргани ҳали кам, томошабинлар. На шайтондир ва на фариштадир у, Мену сиздай одам, томошабинлар.

На дўстга дўст ва на ёрдир ёрига, Қочади келса ғам, томошабинлар. Кўрқаман, бир кунги, ўз қаторига Кўшади мени ҳам, томошабинлар!

ЮРАК ЎФИРИ

Эски тегирмондай дуқиллар юрак, Ваҳмдан оқарди янчилган умр. Бешафқат меҳрдай кечиккан кузак Шафиқ хаёлингдан сўрайди узр.

Тор дилга сиғмагай гуноҳи азим, Дилингда дунёлар айлар жангу жўш. Умидлар хайлидан айро сийратинг Боласиз ҳовлининг ялғоғидай бўш.

Кун ботар сўзининг устидан чиқиб, Кир босган ёқадай кўрнар шафқат, Ғазабини сочиб, қурбини йиғиб Йўлтуша сўрайди жонингдан рамақ.

Қоронғи осмонда ой кетар синиб, Сен қараб турибсан кўзингни узмай. Гуноҳимни ювган ёшларинг илиқ, Манглайимни эса тер босар муздай.

Ёлгон уясида урчийди фасод, Сичқоннинг индида жон сақлар қадар. Масҳара туюлар ҳар қандай нажот, Бўғизда булғанар зардобу захар.

Ютоққан ваҳминг харобатида Ҳирсини қондирар Меҳр, Адоват. Қолмасанг қайғунинг касофатида, Кулгунинг зўридан сингай таҳорат.

Сочларинг рангидай тунлар – мунофиқ, Қайғунинг кўзидай ҳислар – мустаманд. Ишқнинг манглайига битилган ёзиқ, Ишқнинг мозорида ўқилар баланд.

Музлаган кўнглини овулар томуғ, Кўнглини дунёдан совутар оғуш. Тунлар – сен дуч келган хатардай ёвуқ, Кунлар – сен кутмаган хабардай нохуш.

Ахир, адо қилдинг кунларни санаб, Қирқ йиллик қувончинг кетмайди тўзиб. Кифтингдан тушмайди сарғайган ғазаб, Кўнглини кўтариб терлади кўзинг.

Кўргулик ўшадир, саҳфалар бўлак, Қисмат китобининг бетлари юмуқ. Ҳозирча, ярадор юрагинг – гўдак, Ҳозирча, беғубор кўз ёшинг – улук.

Кўр кўнгли кўймайди кўз очиргани, Юрагинг – ҳали мард кўрмаган майдон. Осмонга боқамиз хавотирланиб, Биз бош кўйган ёстиқ янглиғ ой сарсон.

Дарёлар қошидан қайта миз сувсаб, Булутлар ортига кўрқиб қарайди. Ақлим қочди, кўнгли ортидан қувсам, Ақл ошиб кетса, меҳр камайди.

Биз учдик осмоннинг ёлгонларига, Жаҳолат аршидан тушмадик, бироқ. Осилдик айрилиқ арқонларига, Ерда эса, фақат, иблислар – иноқ.

Пайтавалар тожга дўнди самода, Ерда торож бўлди тоза ҳаволар. Орамизга тушиб қолди балога, Киприк қоқмай қараб турган балолар.

Алдайди қисматнинг асотирлари, Тўзонга дош бермай қайтар тавбалар. Кўр кўнгли кўймайди кўз очиргани, Ёлғун савалайди, тинмай савалар.

ДИҚҚАТ ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЙОСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНОФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТҚАЗАДИ.

Ғолиб 20 МИЛЛАЙОН сўм пул мукофоти билан тақдирланади.

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҚАМДА ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА

2024 йилнинг сентябрь ойида – Ўқитувчи ва мураббийлар байрами арафасида топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

ШУНИНГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАФАР КЎШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР БЎЛИМЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ

Танлов ҳомийлари билан танишинг:

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ЎЗБЕК ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАМҒАРМАСИ

JAMOATCHILIK KENGASHI: Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN,

Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, To'liqin TESHABOYEV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir: Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR: Abduq'afar OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA, NASHR UCHUN MAS'UL: Ma'murjon YO'LDOSHEV NAVBATCHI: Feruza XODJAYEVA, DIZAYN GURUHI: Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta: mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 263. Gazetaning bahosi kelishilgan narxda. Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq Buyurtma: G – 521 Bosishga topshirish vaqti 21:00. Topshirildi 01:40

Telefon: (97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456